

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va uning tizimida O‘zbekiston
Respublikasi Prezidentining “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi
o‘rtasida kitob oqishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
2026-yil 15-yanvardagi PQ-9-son qarori ijrosi bo‘yicha**

MA’LUMOTNOMA

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob oqishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 15-yanvardagi PQ-9-son qarori ijrosi bo‘yicha CHORA-TADBIRLAR DASTURI ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan. Ushbu Chora-tadbirlar dasturi doirasida bir qator ishlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Vazirlik va tizimdagi ishchi-xodimlarga qulay mutolaa muhitini yaratish, ular o‘rtasida kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar tashkil etilmoqda, kitobxonlik burchaklari yaratilmoqda.

Kon-geologiya vazirligi tizimidagi Geologiya fanlari universiteti Axborot-resurs markazida talaba yoshlarning mutolaa jarayonlariga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va kitob o‘qish madaniyatini keng targ‘ib qilish maqsadida kitobxonlik burchaklarini yagona standart va zamonaviy yondashuv asosida tashkil etish maqsadida ishlab chiqilgan namunaviy konsepsiya asosida kitobxonlik burchaklari tashkil qilingan.





Bu erda talabalar nafaqat yangi adabiyotlar bilan tanishishlari, balki kitob mutolaasining ruhiy va intellektual foydalarini his qilishlari ham mumkin bo‘ladi.



Kitob ko'rgazmalari – talabalar va professor-o'qituvchilar uchun yangi va nodir adabiyotlarni namoyish etilmoqda. Yangilangan zamonaviy ilmiy va badiiy kitoblarning taqdimotlari o'tkazilib, ular haqida batafsil ma'lumot berilmoqda. Mutolaaga bo'lgan ishtiyoqni oshirish, vaqtni samarali boshqarish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha ekspertlar bilan uchrashuvlar tashkil etilmoqda.

Shuningdek, kelgusida faol kitobxonlarni rag'batlantirish doirasida haftalik davomida eng ko'p kitob mutolaa qilgan talabalarga esdalik sovg'alari topshiriladi.





Mutolaa jarayoni insonga nafaqat bilim, balki ilhom va zavq ham ulashadi. Shu sababli, bu haftalik davomida kitob mutolaa qilish orqali yangi bilimlarga ega bo‘lish bilan birga, iliq va do‘stona muhitda qahva ichish imkoniyati ham yaratiladi.



Geologiya fanlari universiteti barcha talabalarni ushbu ilm va zavq uyg'unligiga taklif etadi!

"Zakovat" klubidan bayramona QUIZ

Joriy yilning 13-fevral kuni Geologiya fanlari universitetida buyuk mutafakkirlar — Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy ruhda "Zakovat Quiz" intellektual o'yini tashkil etildi. Tadbir universitetning "Zakovat" klubi tashabbusi bilan o'tkazilib, unda talabalar faol ishtirok etdi.



Intellektual bellashuv davomida ishtirokchilar buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy va adabiy merosi, tarixiy faoliyati hamda ma'naviy qadriyatlarimizga oid savollarga javob berishdi. O'yin murosasiz, qizg'in va yuqori saviyada tashkil etilib, har bir jamoa o'zining bilim va salohiyatini namoyon qildi.



“Tubanlik” filmi namoyishi — yoshlar ongida ogohlik sari muhim qadam!



🕒 Joriy yilning 9-fevral kuni Geologiya fanlari universiteti 1-bosqich talabalari uchun “Biz diniy ekstremizm va terrorizmning har qanday ko‘rinishi bilan murosasiz kurashamiz” shiori ostida “Tubanlik” filmi namoyish etildi.



🎬 Film orqali erta nikoh, diniy ekstremizm va terrorizmning salbiy oqibatlari, mavjud xavf-xatarlar hamda ularga qarshi kurashish yo'llari yoritib berildi.

👤 Namoyishdan so'ng mutaxassislar ishtirokida tushuntirish ishlari va savol-javoblar o'tkazilib, talabalarga jamiyat xavfsizligi va tinchlikni asrash borasida muhim available berildi.

“NAVOIY ASARLARI BILIMDONI” HAMDA “IBRAT VA SABOQ” TANLOVLARI G‘OLIBLARI TAQDIRLANDI

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan “Navoiy asarlari bilimdoni” hamda “Ibrat va saboq” nomli tanlovlar tashkil etildi.

Tadbirda universitetning barcha fakultetlaridan iqtidorli talabalar ishtirok etib, har bir ishtirokchi alloma hayoti va ijodi bo‘yicha bilimlari hamda bahrubayt shartlarida iqtidorini sinovdan o‘tkazdi.

“Ibrat va saboq” maqolalar tanlovida esa talabalarga Navoiy asarlaridan ixtiyoriy bayt(lar) tanlash hamda uni yozma shaklda tahlil qilish vazifasi berildi. Mazkur tanlov talabalarining yozma nutqi, mantiqiy fikrlashi, tahliliy yondashuvi va savodxonligini namoyon etish uchun samarali bo‘ldi.

Mazkur tanlovlar Navoiy merosini yoshlar ongiga singdirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitishda muhim ahamiyat kasb etdi.





SHOH VA SHOIR, BUYUK SARKARDA IJODI VA FAOLIYATI — YOSHLAR NIGOHIDA



Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida har haftaning juma kuni an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Ma'rifat soati" doirasida bugun Konchilik fakultetida "Shoh va shoir, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida Vatan mavzusi" nomli ma'naviy-ma'rifiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Unda Bobur hayoti va faoliyati, davlatchilik tajribasi, sarkarda sifatidagi jasorati, jahon tarixida alohida tilga olinadigan janglari hamda shoirlik iste'dodi, yurt sog'inchi va elga muhabbat mavzularidagi yuksak poetik asarlari haqida fikrlar bildirildi.


Amaliy muloqot interaktiv ruhda o'tib, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan faol qatnashdilar, Bobur shaxsiyati, ijodi va tarixiy merosining bugungi kun uchun ahamiyati yuzasidan fikr-muohazalar almashdilar.

#Tanlov

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUDINING 543
YILLIGIGA BAG'ISHLAB INSHOLAR TANLOVI TASHKIL ETILDI



Energo-mexanika fakultetida bo‘lib o‘tgan mazkur tanlov shoir, davlat arbobi va sarkarda Bobur siymosi va boburiylar davri ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini yoshlarga chuqurroq anglatish, ularning ijodiy fikrlashi hamda yozma nutq madaniyatini rivojlantirish maqsadida o‘tkazilib, unda barcha fakultetlardan iqtidorli talabalar faol ishtirok etdi.



Tanlovda ishtirokchilar Boburning hayoti, ilmiy-adabiy merosi, “Boburnoma” asarining tarixiy va tarbiyaviy ahamiyati, shuningdek, uning g‘azallari hamda vatanparvarlik ruhidagi qarashlari yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini yozma shaklda bayon etdilar.

Taqdim etilgan ijodiy ishlar endilikda tanlov hay’ati tomonidan matnning mazmun-mohiyati, tahliliy yondashuv, badiiy ifoda, imlo va uslubiy savodxonlik mezonlari asosida baholanib, eng yaxshi insholar mualliflari taqdirlanadi.

#Jarayon

“MA’RIFAT MAYDONI” TANLOVI YOSH AVLODNI MILLIY ADABIYOTIMIZ VAKILLARI BILAN YAQINLASHTIRMOQDA



Talaba-yoshlar o‘rtasida atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida an’anaviy tarzda tashkil etib kelinayotgan “Ma’rifat maydoni” tanlovida NDKTU talabalari ham faol qatnashib kelmoqda.

Joriy yil Energo-mexanika va Kimyo-metallurgiya fakultetlari faol yoshlaridan iborat “Adiblar izidan” jamoasi ishtirok etib, viloyat bosqichida atoqli yozuvchi Oybekning hayoti va ijodi hamda Said Ahmad va Saida Zunnunova hayotidan teatrlashtirilgan kompozitsiyalarni mahorat bilan namoyish etishdi.

Mazkur tanlov nafaqat ijodkorlar hayoti va asarlari bilan yaqindan tanishish imkonini bermoqda, balki yoshlar bevosita sahnada atoqli adiblarimiz siymosini gavdalantirib, ularning orzu-umidlari va armonlarini chuqur his etishayapti. “Adiblar izidan” jamoasining chiqishiga siz ham baho bering...

#Navoiy_585_yoshda

#Amaliy_hamkorlik

Navoiy viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot resurs markazi hamda Pedagogik mahorat markazi hamkorligida Navbahor tumanidagi 5-maktabda viloyat seminari o'tkazildi.

Tadbir doirasida ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlardan o'qituvchilarning mahoratini oshirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar hamda Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga bag'ishlangan "Navoiyning sohilsiz ummoni" nomli adabiy-badiiy kecha va "Zakovat" intellektual o'yini ham tashkil etildi.



Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi va uning tizimida buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligini munosib ohkazish, uning beqiyos ilmiy-adabiy merosini har tomonlama chuqur oʻrganish va keng targʻib qilish maqsadida maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar oʻtkazilmoqda. Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida ilim-fan, adabiyot, madaniyat va sanʼat sohalarining taniqli namoyandalari, chet ellik olimlar hamda jamoatchilik vakillari ishtirokida Alisher Navoiy haykali poyiga gul qoʻyish marosim boʻlib oʻtdi.



Tadbirda respublika vazirlik va idoralari vakillari, ma'rifatparvar va madaniyat xodimlari, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalari, shoirlar hamda adabiyot ixlosmandlari ishtirok etdilar. Unda Alisher Navoiy hazratlarining boy hayoti va bebaho ijodiy merosi yana bir bor keng yoritilib, g'azallari va hikmatli so'zlari o'qildi, milliy kuy va qo'shiqlar ijro etildi.



Mazkur tadbirda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Geologiya fanlari universiteti mutasaddilari va talabalari faol ishtirok etdilar



#Tantana

UNIVERSITET JAMOASI TANTANALI GUL QO'YISH MAROSIMIDA ISHTIROK ETDI



9-fevral sanasida buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan Navoiy shahridagi madaniyat va istirohat bog'ida o'rnatilgan mutafakkir haykali poyiga tantanali gul qo'yish marosimi bo'lib o'tdi.





Unda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti vakillari, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, ijodkor ziyolilar, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalar, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Tantanali tadbirga tashrif buyurgan mehmonlar Hazrat haykali poyiga gul qo'yib, Navoiy dahosiga hurmat bajo keltirishdi.



Buyuk mutafakkir tavalludining 585 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar viloyat bo'ylab davom etmoqda.

ULUG‘ MUTAFAKKIR BETAKROR MEROSI — YOSHLAR NIGOHIDA

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Kimyo-metallurgiya fakultetida 9-fevral — buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan “Zakovat” intellektual o‘yini o‘tkazildi.



Talabalarning Navoiy asarlari bo‘yicha bilim saviyasi, dunyoqarashi va intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish maqsadida tashkil etilgan tadbirda 10 ga yaqin jamoa qatnashdi.

Yakunda “Muvaffaqiyat” jamoasi mutlaq g‘oliblikka erishgan bo‘lsa, ikkinchi o‘rin “Movarounnahr qizlari” jamoasiga hamda faxrli uchinchi o‘rin “Kimyogarlar” jamoasiga nasib etdi. Mazkur jamoalar diplom va tashshakkurnomalar bilan taqdirlandilar.

NAVOIY G‘AZALLARI VA RUBOIYLARI KIMYO-METALLURGIYA FAKULTETI FAOL TALABALARI TALQINIDA

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti boshlang‘ich tashkilotining Kimyo-metallurgiya fakulteti

koordinatori tomonidan Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy chellenj tashkil etildi.

Tyutorlar tomonidan tashkil etilgan mazkur tashabbus yoshlar o'rtasida Navoiy merosiga bo'lgan e'tibor va qiziqishni yanada kuchaytirish, mumtoz adabiyotimizga hurmat ruhini mustahkamlash, talabalarning ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishga qaratilgan.



Chellenj jarayonida talaba yoshlar tomonidan Navoiy asarlari durdonalaridan namunalar ijro qilinib, ulug' merosning bugungi avlodlar hayotidagi dolzarbligi yana bir bor namoyish etildi.



MATBUOT ANJUMANI: ALISHER NAVOIY TAVALLUDINING 585 YILLIGI NAVOIY VILOYATIDA QANDAY NISHONLANMOQDA?

Yoshlar markazi binosida Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan matbuot anjumani o'tkazildi. Unda Navoiy viloyati hokimligi vakillari, viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, adabiyotshunos olimlar, ijodkorlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Uchrashuvda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti rektori B.Mardonov ham ishtirok etdi va universitetda o'tkazilayotgan keng ko'lamli jarayonlar, ilmiy-amaliy anjumanlar haqida ma'lumot berdi. Tadbir savol-javob va badiiy chiqishlar tarzida davom etdi.

Anjumanda jurnalistlarga mas'ullar tomonidan mazkur sana yuzasidan tashkil etilayotgan loyihalar, tashabbuslar, Navoiy viloyatida buyuk shoir merosini keng targ'ib etishga qaratilgan tadbirlar haqida axborot taqdim etildi.



Tadbir davomida loyiha ishtirokchilari sportning yoshlar hayotidagi oʻrni va giyohvandlikning inson salomatligi hamda kelajakka yetkazadigan salbiy oqibatlari haqida tushunchalarga ham ega boʻldi. Bunday sport-sogʻlomlashtirish aksiyalari yoshlar oʻrtasida profilaktik ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

NAVOIYNING YUKSAK MA'NAVIY MEROSI — YOSHLAR NIGOHIDA

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Agromuhandislik va kommunikatsion texnologiyalar fakulteti faol talabalari tomonidan Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan badiiy kecha oʻtkazildi.

Tadbirni viloyat Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi rahbari R.Hayitov ochib berar ekan, buyuk ajdodimiz dahosini ulug'lash asnosida shoir ijodini targ'ib etish, milliy o'zligimizni chuqur anglash, allomaning yaratgan betakror ilmiy-ijodiy merosini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish bugungi kunda muhim vazifa ekanligini ta'kidladi.

Shundan so'ng talabalar tarixiy qahramonlar siymosida g'azal va ruboiylar ijro etishdi. Talabalarning har bir chiqishlari tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi. Tadbir Navoiyning g'oyaviy-ma'naviy merosini zamonaviy avlod ongiga singdirishda muhima ahamiyat kasb etdi.

ULUG' MUTAFAKKIR IJODIGA BAG'ISHLANGAN "ZAKOVAT" INTELLEKTUAL O'YINI O'TKAZILDI

"Farhod" madaniyat saroyi kutubxonasi filialida 9-fevral — buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi.

Mazkur tadbir yoshlar oʻrtasida Navoiy ijodiga boʻlgan qiziqishni yanada oshirish, mumtoz adabiyotimizning boy merosini chuqurroq oʻrganish, talabalarning bilim saviyasi, keng dunyoqarashi hamda intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratildi.



Mazkur bellashuvda oliy ta'lim muassasalaridan 10 ga yaqin jamoa ishtirok etib, yoshlar buyuk mutafakkirning hayoti va ijodi, asarlari mazmuni, falsafiy qarashlari hamda o'zbek adabiyoti tarixiga oid savollar yuzasidan o'z bilim va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini namoyon etdilar.

Tadbir yakunida yuqori natijaga erishgan g'olib va sovrindor jamoalar tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlandi.

So'z mulkingning sultoni, buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan 2-Mis boyitish fabrikasida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.



Tadbirda buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning hayoti va boy ijodiy merosi haqida ma'ruzalar qilindi. Uning asarlaridan namunalar o'qilib, mazmun-mohiyati tahlil etildi.

Ishtirokchilar Navoiy ijodining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ta'kidladilar. Tadbir ko'tarinki ruhda va yuqori saviyada tashkil etildi.

Avtomobil transporti boshqarmasida o'zbek adabiyotining ikki buyuk timsoli — so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud ayyomlariga bag'ishlangan ma'naviyat kechasi bo'lib o'tdi.



Yoshlar ittifoqi va Kasaba uyushmasi hamkorligida tashkil etilgan ushbu tadbirda buyuk bobokalonlarimizning boy merosi, insoniyat tafakkurini boyitgan asarlari haqida so'z borar ekan, ularning o'lmas g'azallari yoshlar va ishchi-xodimlar ijrosida yangrab, qalblarga zavq bag'ishladi.

Tadbirda qatnashgan OKMK xodimlari Kasaba uyushmasi Kengashi ma'naviyat va ma'rifat komissiyasi raisi U. Amanov, "Metallurg" madaniyat saroyi kutubxonachilari hamda 5-maktab o'quvchilari buyuk bobolarimizning hayoti va ijodiga oid qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etishdi. Sahna ko'rinishlarini namoyish

qilishdi. Ayniqsa, buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodlariga doir savol-javoblar bahsi ishchi-xodimlarning adabiyotga bo'lgan ehtiromini namoyon etdi.

Tadbir yakunida faol ishtirokchilar jurnal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga bag'ishlangan “Zakovat” intellektual o'yini o'tkazildi

#Alisher_Navoiy_585 #Zakovat #yoshlar_siyosati

Navoiy shahridagi “Yoshlar markazi”da “Navoiyuran” davlat korxonasi Yoshlar yetakchilari Kengashi tomonidan buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga bag'ishlangan “Zakovat” intellektual o'yini bo'lib o'tdi.

Mazkur ma'naviy-ma'rifiy tadbir yoshlar o'rtasida intellektual salohiyatni oshirish, kitobxonlik madaniyatini targ'ib etish, shuningdek, milliy ma'naviy merosimizga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish maqsadida tashkil etildi.



Bellashuvlarda “Navoiyuran” davlat korxonasining tarkibiy bo'linmalarida mehnat faoliyatini olib borayotgan yoshlardan iborat 12 ta jamoa ishtirok etdi. Qizg'in va murosasiz bahslar ikki tur doirasida o'tkazilib, ishtirokchilarning bilim saviyasi, tezkor fikrlash va jamoaviy hamjihatlik qobiliyatlari sinovdan o'tkazildi.



Tadbir yakunida 6-sonli Birlashgan kasaba uyushmasi Qo'mitasi tomonidan g'olib va sovrindor jamoalar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Tadbir so'ngida yoshlar Qatag'on qurbonlari tarixi muzeyiga tashrif buyurib, yaqin o'tmishdagi tarixiy manbaalar haqida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

#Navoiy_585_yoshda #Chellenj

NAVOIY G‘AZALLARI VA RUBOIYLARI — KIMYO-METALLURGIYA FAKULTETI TALABALARI TALQINIDA...

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Kimyo-metallurgiya fakulteti talabalari tomonidan Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy chellenj tashkil etildi.



Tyutorlar tomonidan tashkil etilgan mazkur tashabbus yoshlar o‘rtasida Navoiy merosiga bo‘lgan e’tibor va qiziqishni yanada kuchaytirish, mumtoz adabiyotimizga hurmat ruhini mustahkamlash, talabalarning ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishga qaratilgan.



Chellenj jarayonida talaba yoshlar tomonidan Navoiy asarlari durdonalaridan namunalar ijro qilinib, ulug' merosning bugungi avlodlar hayotidagi dolzarbligi yana bir bor namoyish etildi.





#Navoiy_585_yoshda
#Challenj

NAVOIY G'AZALLARI VA
RUBOIYLARI — KIMYO-
METALLURGIYA
FAKULTETI TALABALARI